

6. Henry George, *Progress and Poverty* (New York: Robert Schalkenbach Foundation, 1979 [1879])
7. Susan L Roakes *Land Use Policy*, Vol. 13, No. 4, pp. 261-272, 1996 Copyright © 1996 Elsevier Science Ltd Printed in Great Britain.
8. Faybullaev O, Uroqov U. (2016). *Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма*. Тошкент: Baktria press. – 21 б
9. Маликов Т. Солиқлар ва солиққа тортишнинг долзарб масалалари. Т.: Академия, 2002. 116 б.
10. Ламперт Я. 1993. *Некоторые современные принципы налогообложения*. М.: ГПНТБ, 2-б.
11. <https://cleartax.in/f/company/hivi-precision-private> imited
12. <http://www.bff-online.de> (Германия федератив республикасининг молия бўйича федерал идораси маълумотлари);
13. <http://www.irs.ustzeas.gov> (АҚШ ички даромадлари хизматининг материаллари);
14. Shamsutdinov F.Sh., Shamsutdinova Sh.F. *Xorijiy tamlakatlar soliq tizimi. (Darslik)*. —Т.: Fan va texnologiya, 2011. - 508 bet. ISBN 978-9943-10-553-9
15. <http://www.finances.gouv.fr/DGI> (Франция солиқ бош бошқармасининг материаллари);
16. <https://www.japan-guide.com/e/e2206.html> (Япония солиқ агентлиги материаллари).
17. Shamsutdinov F.Sh., Shamsutdinova Sh.F. *Xorijiy tamlakatlar soliq tizimi. (Darslik)*. —Т.: Fan va texnologiya, 2011. - 508 bet. ISBN 978-9943-10-553-9
18. <http://www.chinatax.gov.cn/eng/n2367736/index.html>.
19. Shamsutdinov F.Sh., Shamsutdinova Sh.F. *Xorijiy tamlakatlar soliq tizimi. (Darslik)*. —Т.: Fan va texnologiya, 2011. - 508 bet. ISBN 978-9943-10-553-9
20. <http://www.rsv.se>. (Швеция давлат солиқ бошқармасининг материаллари).
21. Shamsutdinov F.Sh., Shamsutdinova Sh.F. *Xorijiy tamlakatlar soliq tizimi. (Darslik)*. —Т.: Fan va texnologiya, 2011. - 508 bet. ISBN 978-9943-10-553-9



 [https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss2/a33](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss2/a33)

### JAHON SOLIQQA TORTISH TIZIMIDA SOLIQ BAZASINI ANIQLASH XUSUSIYATLARI

**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich** -  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
i.f.d., professor  
**Xalikchayeva Sadokat Ilxomjonovna** -  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini  
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"  
ilmiy-tadqiqot markazi doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jahon soliq tizimida mavjud soliq turlari va ularning soliq bazasini aniqlash jarayonlari, xususiyatlari, tartiblari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Qolaversa, ma'lum bir soliqlarning bazasi, shuningdek, bazaga ta'sir etuvchi omillar xususida alohida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** soliqlar, soliq tizimi, soliq siyosati, foyda, daromad, soliq bazasi, soliq kodeksi, soliq imtiyozlari, xarajatlar.

### ОСОБЕННОСТИ ОПРЕДЕЛЕНИЯ НАЛОГОВОЙ БАЗЫ В МИРОВОЙ СИСТЕМЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ

**Худойкулов Садирдин Каримович** -  
ТГЭУ доктор экономических наук., профессор  
**Халикчаева Садокат Ильхомжановна** -  
Докторант Научно-исследовательского центра  
«Научные основы и проблемы экономического  
развития Узбекистана» Ташкентского  
государственного экономического университета

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о видах налогов, имеющих в мировой налоговой системе, а также о процессах, особенностях и порядке определения их налоговой базы. Кроме того, особое внимание уделялось базе некоторых налогов, а также факторам, влияющим на базу.

**Ключевые слова:** налоги, налоговая система, налоговая политика, прибыль, доход, налоговая база, налоговый кодекс, налоговый кредит, расходы.

## FEATURES OF DETERMINING THE TAX BASE IN THE WORLD TAXATION SYSTEM

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich** -

TSEU DSc., professor.

**Khalikchaeva Sadokat Ilkhomjanovna** -

Doctoral student of the Research Center "Scientific bases and problems of economic development of Uzbekistan" at the Tashkent State University of economics

**Annotation.** This article provides information about the types of taxes available in the world tax system and the processes, features, and procedures for determining their tax base. In addition, special considerations were made regarding the base of certain taxes, as well as the factors affecting the base.

**Key words:** taxes, tax system, tax policy, profit, income, tax base, tax code, tax credits, expenses.

**Kirish.** Soliqqa tortish jarayonining muhim bosqichi soliq bazasini aniqlash tartibidir, ya'ni soliqchlarni davlat byudjetiga kelib tushishidagi eng muhim jarayon hisoblanib, bu bosqichda soliq bazasini aniqlash tartibini to'g'ri va adolatli tashkil etilishi bevosita va bilvosita soliq siyosati bilan tartibga solinadi. Soliq bazasining aniqlanishiga qarab soliq yuki, soliq tushumlari hajmi, soliqqa oid huquqiy munosabatlar va shu kabi muhim jarayonlar yuzaga keladi. Bu jarayonlar esa o'z navbatida, soliq ma'murchiligiga borib taqaladi hamda uni murakkablashtiradi. Yuqoridagi holatlar esa soliq bazasini aniqlash tartibining puxta mexanizmi ularning to'g'ri va aniq hisoblanishiga, davlat byudjetiga yetarli miqdorda kelib tushishiga asos yaratuvchi asosiy manba ekanligini yana bir bor ko'rsatib beradi. Bizga ma'lumki, soliqchlarning bazasiga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri bu davlat soliq siyosatidagi o'zgarishlar hisoblanadi. Bu o'zgarishlar soliq turlari bo'yicha ayrim imtiyozlarning qo'shimcha ravishda berilishi, ayrimlarining bekor qilinishi, soliq stavkalarining oshirilishi yoki kamaytirilishi, ba'zi bir soliq obyektlarining kengayishi yoxud qisqartilishi (soliq obyektidan chiqarib tashlanishi) va shu kabilar. Albatta, bu kabi jarayonlarda pespublikamiz soliq tizimining, soliq siyosatining ishlab chiqilishida samarali xorij tajribalari, o'z natijasini bergan tadqiqotlar, xorijiy mamlakatlar soliq tizimidagi yangiliklardan keng foydalana bilish soha tarqiy etishida ahamiyatli hisoblanadi. Shunday ekan, biz ushbu maqolamizda jahon soliq tizimida soliq bazasi aniqlash tartiblari va xususiyatlarini obyekt sifatida tadqiq qilamiz hamda ko'rib chiqamiz.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Xorijiy mamlakatlar soliq tizimida soliq bazasi va uni aniqlash qoidalari haqida so'z yuritar ekanmiz, soliq bazasi va unga ta'sir etuvchi omillar haqida hamda soliq bazasini aniqlash tartibining xususiyatlari xususida Rus olimi N.V. Milyakov "Ba'zi hollarda soliq solinadigan baza aslida soliq stavkasi qo'llaniladigan soliqqa tortish obyektining bir qismidir" degan bo'lsa[1], I.A. Mayburov "Rossiya soliq tizimida Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i soliq solinadigan baza soliq solish obyektidan soliq chigirmalari miqdori bilan farqlanadi" deya ta'kidlagan[2].

S.S. Piroga esa o'z maqolasida "Ukraina va Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksida QQS obyektining ta'rifi ushbu konsepsiyaning iqtisodiy ma'nosini aks ettirmaydi, bu soliq solinadigan bazani, uni hisoblash momentini obyektiv va aniq belgilashga imkon bermaydi, soliq huquqiy mexanizmining keraksiz elementlari – schyot-fakturalar, alohida buxgalteriya va soliq hisobini kiritish kerak. Qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun qo'shilgan qiymatni QQS obyektini sifatida belgilash va soliq solinadigan baza hisobini to'lov topshiriqnomalari (bank hisobvaraqlari) asosida yuritish lozim" degan[3].

Qolaversa, N.N. Shelemex bir maqolasida daromad va xarajatlarni shakllantirish tartibi, foydani soliqqa tortish maqsadida soliq solinadigan bazani aniqlash haqida o'z fikrlarini bayon qilgan bo'lsa [4], P.P.Gruzin alohida misollar bilan, agar soliq to'lovchida foizlarni tejash shaklida moddiy manfaatlar mavjud bo'lsa, soliq solinadigan baza qanday aniqlanishini ko'rib chiqqan[5].

K.I.Berkin ham soliq bazasi va uni aniqlash tartibi yuzasidan tadqiqotlar olib borgan va soliq solinadigan bazaning erroziyasiga qarshi kurashish, shuningdek, foydani soliqqa tortishdan olib qo'yish bo'yicha xalqaro va milliy tajribalarni o'z izlanishlarida ko'rib chiqqan olim hisoblanadi[6].

Qolaversa, T. Kozenkova ham MDH mamlakatlarida har xil turdagi soliqlar bo'yicha soliq solinadigan bazaning tarkibini ko'rib chiqqan olimlar sanaladi[7]. Shuningdek L.N.Lekova, I.S.Bukinalar ham chet mamlakatlari soliq tizimi haqida o'z qarashlarini va tadqiqotlarini bir joyga jamlab o'quv qo'llanma yaratgan[8].

Yevropa olimlaridan esa soliq bazasi bo'yicha izlanishlar olib borgan tadqiqotchilardan Carsten Wendetning mulohazalari muhim ahamiyatlidir deb o'ylaymiz. Chunonchi, Carsten Wendet maqolalaridan birida kompaniyaning soliqqa tortilishi ichki bozorni tashkil etish va tugatishning muhim elementligini va ushbu fonda Yevropa Komissiyasi Yevropa Ittifoqida soliq bazasini uyg'unlashtirishni tavsiya qiladi. Yevropa Ittifoqidagi transmilliy korxonalar uchun umumiy soliq bazasining zarurati, konsepsiyasi hamda potensial afzalliklari va oqibatlarini tahlil qiladi. U umumiy soliq bazasiga taalluqli

muhim masalalarni ko'rib chiqadi, masalan, konsolidatsiyalashgan guruhning ta'rifi, konsolidatsiya texnikasi va ko'lami hamda konsolidatsiyalangan soliq bazasini jalb qilingan a'zo davlatlar o'rtasida taqsimlashda foydalaniladigan formulalar shular jumlasidandir. Muallif ushbu muammolarni hal qilishning muqobil variantlarini taqdim etadi va Yevropa Komissiyasi tomonidan mo'ljallangan umumiy soliq bazasi Yevropa Ittifoqidagi ko'p millatli korxonalar uchun mavjud bo'lgan ko'plab soliq to'siqlarini bartaraf qiladi degan xulosaga keladi[9].

Mahalliy olimlarimiz ham o'z izlanishlarida soliq bazasini aniqlash jarayonlari xususida turlicha qarashlar bilan yondoshgan, jumladan, F.Sh.Shamsutdinov, Sh.F.Shamsutdinova xorijiy mamlakatlarning soliq tizimi hamda asosiy elementlarining amaliy va nazariy asoslarini kompleks tarzda o'z darsligida yoritib beradi. Darslikda xorijiy mamlakatlarning soliq tizimining asosi, xususiyatlari, davlat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri masalalari ko'rib chiqilgan[10].

A.S. Jo'rayev, N.R.Kuziyeva Markaziy Osiyo davlatlari soliq tizimining o'ziga xos jihatlari yoritilgan o'quv qo'llanmasida Markaziy Osiyo davlatlari tarkibiga kiruvchi Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston va O'zbekiston mamlakatlarning soliq tizimining tuzilish asoslari, soliq tizimini tashkil etuvchi asosiy soliq guruhlari, umumdavlat va mahalliy soliqlarning byudjet daromadlarini shakllantirishda tutgan o'rni, egri va to'g'ri soliqlarning byudjetga undirish mexanizmi, soliqlar yuzasidan beriladigan imtiyoz turlari, hozirgi kunda amaldagi soliq stavkalari va soliqlarni to'lash muddatlarini tahlil qilgan va ushbu masalalar yuzasidan fikr-mulohazalar keltirilgan[11].

Q.Yahyoyev izlanishlarida esa xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, "Soliqqa tortiladigan bazani belgilash ikki usul bilan olib boriladi: to'g'ri usul va hisobli usul. To'g'ri usulda soliqqa tortiladigan daromad (foyda) doimiy muassasaning olgan jami daromadi bilan chet ellik yuridik shaxsning faoliyati bilan bog'liq chegirmalari, shu jumladan, chet elda amalga oshirilgan boshqaruv va ma'muriy xarajatlarni qo'shib, farqi sifatida belgilanadi. Ikkinchi hisob usulida soliq bazasini aniqlash qiyin bo'lganda shu daromadni olishdagi xarajatlar salmog'iga nisbatan qilib hisoblash yo'li bilan aniqlanadi" deganining guvohi bo'lasak[12], A.Jo'rayev va Sh.Shirinov hamkorligida yaratilgan darslikda "Soliq solinadigan bazani aniqlash usuli soliq solish obyektining turiga va tavsifiga bog'liq. Soliq obyektining tavsifiga qarab soliq bazasini aniqlash usullarini quyidagi guruhlarga ajratishimiz mumkin: soliq to'lovchining daromadi asosida soliq bazasini aniqlash, soliq to'lovchining mahsulot, tovar, ish va xizmatlar sotuvidan olgan tushumi asosida aniqlanuvchi soliq bazasi, soliq to'lovchining unga tegishli bo'lgan mulki asosida soliq bazasini aniqlash usuli,

soliq to'lovchining tadbirkorlik maqsadida foydalanilgan resurslari asosida soliq bazasini aniqlash usuli, soliq to'lovchining faoliyat turiga qarab soliq bazasini aniqlash usuli." kabi mulohazalar yuritilgan[13].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot metodologiyasi sifatida butun Jahon iqtisodiy hamjamiyat doirasi va soliq tizimida olib borilayotgan soliq islohotlari, soliq siyosati, soliq kodeksi, qonunlari va qonun osti hujjatlarini chuqur o'rganish davomida analiz va sintez, iqtisodiy matematik usullar, ilmiy mushohada, ma'lumotlarni guruhlash hamda klassifikatsiyalash orqali nazariy tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.** Davlat borki, unda turli soliqlar amal qiladi. Soliq bor joyda esa uni hisoblash va yig'ish uchun ma'lum tartiblar ishlab chiqiladi. Bu tartiblar tizimi esa o'sha davlat soliq mamuriyatchiligini belgilab beradi. Har bir davlatning iqtisodiy siyosiy va ijtimoiy xususiyatlari, qolaversa, siyosiy va iqtisodiy joylashuvi, iqlim va diniy qarashlaridan kelib chiqqan tarzda o'z soliq tizimi yuritiladi. Har bir davlat soliq tizimining individual xususiyatlari hisobga olinib soliq bazasini aniqlash tartibi joriy etiladi. Xorijiy mamlakatlar soliq tizimlari xususiyatlarini o'rganish, ularning ijobiy va salbiy tomonlariga e'tibor qaratish, kamchilik va afzalliklarini hisobga olgan holda, rivojlantirib kelayotgan, hamda jahon mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy integratsiyasini teng huquqli a'zosi-ga aylangan mustaqil O'zbekiston Respublikasi moliya-byudjet tizimi, soliqqa tortish tizimini mukammallashtirish orqali mamlakatimizni yanada taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham Yangi O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida amal qiladigan qonunlar, soliq tizimi muammolarini yechishdagi muqobil variantlar, ularni tanlash va qaror qabul qilishda xorijiy mamlakatlar amaliyotini o'rganib, tajriba to'plashimiz zarurdir. Biz quyida bu jarayonlarni va uning o'ziga xos xususiyatlarini rivojlangan bir nechta davlatlar miqyosida ko'rib chiqamiz.

Jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, Yevropa mamlakatlarida foyda solig'i bazasi turlicha aniqlanadi va turlicha aniqlash jarayoniga turlicha yondashilar ekan. Xususan, Vengriya va Fransiya soliq bazasi buxgalteriya daftaridagi daromad asosida aniqlansa, Estoniya, Latviya taqsimlanmagan foyda, Sloveniyada kompaniyaning balans daromadi, chegirma va soliqqa tortilmaydigan obyektlar uchun tuzatishlar orqali aniqlanadi.

2004-yil MDHga a'zo davlatlar o'rtasida maxsus soliq kodeksi qabul qilingan bo'lib, bu kodeksning 3-moddasiga binoan soliq solinadigan bazani aniqlashda soliq to'lovchining o'zi tomonidan ham pul, ham natural shaklda olgan yoki tasarruf etish huquqi vujudga kelgan barcha daromadlari, shuningdek, moddiy manfaatlar ko'rinishidagi daromadlari hisobga olinadi deyilgan[14].

## Yevropa mamlakatlarida foyda solig'i bazasi

№	Davlatlar	Soliq bazasi
1.	Vengriya	Buxgalteriya daftaridagi daromad
2.	Shvetsariya	Kompaniyaning savdo faoliyatidan sof foydasi, passiv daromadi, kapital o'sishi
3.	Germaniya	Savdo foydasi, passiv daromad, kapital daromadlari
4.	Litva	Savdo foydasi, passiv daromad, kapital o'sishi
5.	Velikobritaniya	Rezident kompaniyalar – savdo faoliyatidan olingan foyda, ma'lum notijorat daromadlar, kapital
6.	Polsha	Savdo faoliyatidan va kapital daromadidan olingan foyda
7.	Sloveniya	Kompaniya faoliyatidan olingan barcha foyda, uning faoliyati bilan bog'liq xarajatlar miqdoriga kamayadi
8.	Chexiya	Soliqqa tortiladigan daromad Chexiya buxgalteriya hisobi qoidalariga muvofiq soliqqa tortish maqsadlari uchun tuzatishlar bilan hisoblanadi. Umuman olganda, agar soliq to'lovchi tomonidan hujjatlashtirilgan bo'lsa, soliqqa tortiladigan daromadni olish, ta'minlash va saqlash uchun qilingan barcha xarajatlar chegirib tashlanadi.
9.	Estoniya	Taqsimlangan foyda
10.	Latviya	Taqsimlangan foyda
11.	Slovakiya	Kompaniyaning balans daromadi, chegirma va soliqqa tortilmaydigan obyektlar uchun tuzatilgan
12.	Ispaniya	Global daromaddan chegirib tashlanadigan xarajatlar
13.	Italiya	Rezident kompaniya – moliya yil uchun sof daromad, passiv daromad, kapital o'sishidan iborat savdo faoliyatidan olingan foyda.
14.	Fransiya	Buxgalteriya daftari daromadi

**Manba:** <https://prian.ru/pub/obzor-nalogov-v-evrope-sravnitel'naya-tablica-glavnyh-nalogov-dlya-fizicheskix-i-yuridicheskix-lic.html>

Bunga muvofiq, soliq solinadigan baza har xil soliq stavkalari belgilangan har bir daromad turi uchun alohida belgilanadi va soliq imtiyozlaridan foydalangan holda soliq solinadigan daromadning pul qiymati sifatida aniqlanishi belgilab qo'yilgan. Agar soliq davridagi soliq imtiyozlari miqdori xuddi shu soliq davri uchun soliqqa tortiladigan daromad summasidan kattaroq bo'lsa, ushbu soliq davri uchun soliq solinadigan baza nolga teng deb hisoblanadi. Agar yuqoridagi kodeksda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, ushbu soliq davridagi soliq imtiyozlari summasi va soliqqa tortiladigan daromad summasi o'rtasidagi farq keyingi soliq davriga o'tkazilmaydi.

Shuningdek, bu kodeksning 4-moddasida "Natural shaklda olingan daromadlar soliq solinadigan bazasini aniqlashning xususiyatlari" ham batafsil ko'rsatib o'tilgan. Ya'ni, soliq to'lovchi tashkilotlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar ko'rsatgan ishlar (tovarlar, xizmatlar) uchun natura shaklida daromad olgan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha ularning bozor narxlaridan kelib chiqqan holda hisoblangan tanarxi sifatida aniqlanadi. Albatta, qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlarning tegishli summalarini hisobga olgan holda.

Moddiy manfaat shaklida daromad olishda soliq solinadigan bazani aniqlashning xususiyatlari esa yuqoridagi kodeks 5-moddasida yoritib o'tilgan bo'lib, ular quydagilardan iborat:

1) soliq to'lovchining tashkilotlardan yoki yakka tartibdagi tadbirkorlardan olingan qarz (kredit) mablag'laridan foydalanganlik uchun foizlarni tejashdan moddiy foyda olgan taqdirda, soliq solina-

digan baza qarz (kredit) mablag'laridan foydalanganlik uchun foizlar summasidan oshib ketgan summa sifatida aniqlanadi. Shartnoma shartlari asosida hisoblangan foizlar summasidan ko'ra, bunday mablag'lar olingan sanadagi kredit bo'yicha bozor foiz stavkasi bo'yicha ;

2) soliq to'lovchiga nisbatan o'zaro bog'liq shaxslardan fuqarolik-huquqiy shartnomaga muvofiq tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib olishdan moddiy manfaat ko'rganda soliq solinadigan baza soliq to'lovchiga nisbatan o'zaro bog'liq shaxslar tomonidan sotilgan bir xil (bir hil) tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxidan oshib ketishi sifatida aniqlanadi.

3) qimmatli qog'ozlarni sotib olishdan moddiy foyda olganda, soliq solinadigan baza qimmatli qog'ozlarning bozor qiymatining o'zgarib turishining marjinal chegarasini hisobga olingan holda, belgilanadigan qimmatli qog'ozlarning bozor qiymatining soliq to'lovchining ularni sotib olish uchun qilgan haqiqiy xarajatlari summasidan oshib ketishi sifatida aniqlanadi.

Soliq solinadigan bazani aniqlashda quyidagi to'lovlar shaklida olingan daromadlar hisobga olinmaydi[15]:

1) mamlakat qonunchiligida belgilangan tartibda amalga oshiriladigan majburiy sug'urta shartnomalari bo'yicha olingan daromadlar;

2) kamida besh yil muddatga tuzilgan va ushbu besh yil davomida sug'urtalangan shaxs foydasiga sug'urta to'lovlarini, shu jumladan annuitetlar va (yoki) annuitetlar ko'rinishidagi sug'urta to'lovlarini nazarda tutmaydigan ixtiyoriy uzoq muddatli hayotni sug'urtalash shartnomalari bo'yicha olingan

daromadlar. (Sug'urtalangan shaxs vafot yetgan taqdirda nazarda tutilgan sug'urta to'lovi bundan mustasno);

3) sog'liqqa yetkazilgan zarar va (yoki) tibbiy xarajatlarni qoplashni nazarda tutuvchi ixtiyoriy sug'urta shartnomalari bo'yicha olingan daromadlar;

4) jismoniy shaxslar tomonidan tuzilgan ixtiyoriy pensiya sug'urtasi shartnomalari (nodavlat pensiya ta'minoti shartnomalari) bo'yicha olingan daromadlar, agar bunday to'lovlar amalga oshirilsa. (Mamlakat qonunchiligiga muvofiq pensiya ta'minoti uchun asoslar yuzaga kelganda.)

Soliq solinadigan bazani aniqlashda quyidagilar hisobga olinmaydi:

- ish beruvchilar tomonidan tuziladigan shartnomaviy majburiy sug'urta bo'yicha, shuningdek, hayoti, sog'lig'iga yetkazilgan zarar va (yoki) tibbiy xarajatlarning o'rnini qoplashni nazarda tutuvchi ixtiyoriy sug'urta shartnomalari bo'yicha mamlakat soliq qonunchiligida belgilangan miqdorda sug'urta mukofotlari miqdori;

- nodavlat pensiya ta'minoti shartnomalari, ish beruvchilar tomonidan litsenzyaga yega nodavlat pensiya jamg'armalari, yagona faoliyati hayot va pensiya sug'urtasi bo'lgan sug'urta tashkilotlari bilan tuzilgan pensiya sug'urtasi shartnomalari bo'yicha pensiya (sug'urta) badallari summalar;

- ixtiyoriy mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha (shu jumladan uchinchi shaxslarning mol-mulkiga yetkazilgan zarar uchun fuqarolik javobgarligini sug'urtalash va (yoki) transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish) sug'urta hodisasi yuzaga kelganda soliq to'lovchining soliqqa tortiladigan daromadi quyidagicha aniqlanadi:

- sug'urtalangan mulk (uchinchi shaxslarning mol-mulki) yo'qolsa yoki yo'q bo'lib ketsa, olingan sug'urta to'lovi miqdori va sug'urtalangan mol-mulkning shartnoma tuzilgan sanadagi ko'rsatilgan bozor qiymati o'rtasidagi farq sifatida.

- sug'urtalangan mulkga (uchinchi shaxslarning mulkiga) yetkazilgan zarar – olingan sug'urta to'lovi miqdori va ushbu mulkni sug'urta qilish uchun to'langan sug'urta mukofotlari miqdoriga ko'paygan ushbu mulkni ta'mirlash (tiklash) uchun zarur xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida.

MDH davlatlari ichida Rossiya iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan va moliyaviy barqaror mamlakat sanalib, soliq tizimining ko'pgina unsurlari boshqa davlatlar tomonidan foydalanish uchun namuna sifatida o'rganilgan va o'rganilmoqa. Soliq bazasi va uni aniqlash tartibi Rossiya Federatsiyasining Soliq kodeksi bilan belgilanadi[16]. Rossiya soliq kodeksiga binoan soliq bazasini shakllantirishning ikkita asosiy usuli (hisoblash usuli) mavjud:

*Naqd pul usuli* (o'zlashtirish usuli). Bu usulda naqd pul mablag'larini olish va naqd to'lovlarni amalga oshirish vaqtini hisobga olgan holda, ya'ni

soliq to'lovchi tomonidan ma'lum bir huquqiy shaklda o'zlashtirilgan (naqd pulda olingan, barcha zarur hujjatlar bilan mulkka o'tkazilgan) summalar (mol-mulk); va boshqalar);

*Jamg'arib boriladigan usul*(sof daromad usuli). Bunda mulkiy huquqlar yoki majburiyatlar paydo bo'lish momenti muhim ahamiyatga ega (masalan, soliq to'lovchining ma'lum bir soliq davrida olish huquqiga ega bo'lgan barcha summalar, ular aslida qachon olinganidan qat'iy nazar) daromad sifatida tan olinadi.

Rossiya soliq nazariyasida soliq solinadigan baza hajmini aniqlashning bir necha usullari mavjud:

- ❖ Rossiya qonunchiligida soliq bazasini hisoblashning *to'g'ridan-to'g'ri usuli* asosiy hisoblanadi, u soliq to'lovchining haqiqiy va hujjatlashtirilgan tasdiqlangan ko'rsatkichlarini belgilaydi, ya'ni, soliq bazasi dastlabki hujjatlar, buxgalteriya hisobi registrlari va buxgalteriya hisobi va soliq hisobotlari ma'lumotlari asosida hisoblanadi;

- ❖ *bilvosita usul* (analogiya bo'yicha hisoblash) soliq solinadigan bazani to'g'ridan-to'g'ri qayta hisoblashning iloji bo'lmaganda qo'llaniladi. Shu jumladan, soliq to'lovchi soliq organlari tomonidan tekshirishdan bosh tortgan hollarda qo'llaniladi. Keyin bunday shaxslarning soliq solinadigan daromadlari shu kabi faoliyat bilan shug'ullanuvchi boshqa shaxslarning soliqqa tortilishi hisobga olingan holda ular tomonidan daromad olganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida aniqlanadi;

- ❖ daromadni aniqlashning *shartli usuli* ikkilamchi xususiyatlardan foydalanishni o'z ichiga oladi, bunda soliq bazasi soliq solish obyektining shartli xususiyatlaridan kelib chiqib hisoblanadi. Masalan, ijaraga olingan binolar uchun ijara haqi miqdori, yashash xarajatlarining o'rtacha miqdori va boshqalar;

- ❖ *bir martalik to'lov usuli* daromadning shartli miqdorini emas, balki soliqning shartli miqdorini aniqlashga asoslanadi. Bu usulda soliq bazasini hisoblashda inflyatsiyaning soliqlar va soliqqa tortishga ta'sirini hisobga olish muhimdir.

Biz quyida berilgan jadval orqali esa Rossiya soliq tizimida bir qator soliqlarning soliq bazasini aniqlash tartibini keltirib o'tganmiz.

Jadvalga asosan mulohaza qilsak, Rossiya soliq tizimida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i davlat byudjetini yirik daromadlari qatoriga kiradi va soliq solinadigan baza soliq to'lovchi daromadining pul qiymati hisoblanadi, ya'ni, fuqaroning soliq to'lashi shart bo'lgan daromadlarining umumiy summasi. Soliq solinadigan bazani aniqlashda pul va natura shaklida, shuningdek, moddiy manfaatlar shaklida olingan barcha daromadlar hisobga olinadi. Har xil turdagi daromadlar, shu jumladan sud qarori bilan ushlab qolingan daromadlar soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

Rossiya Federatsiyasi soliq tizimida mavjud soliqlarning soliq bazasini aniqlash tartibi va xususiyatlari

No	Soliqning nomi (soliq solish obyekti)	Soliq bazasi
<b>Federal soliqlar</b>		
1.	<b>Shaxsiy daromad solig'i</b>	Daromad minus soliq imtiyozlari (daromadning har bir turi uchun alohida belgilanadi): <ul style="list-style-type: none"> <li>• mulkni sotishdan olingan daromadlar;</li> <li>• ijara daromadi;</li> <li>• turli yutuqlar;</li> <li>• chet eldagi mol-mulkdan olingan daromadlar va boshqalar.</li> </ul>
2.	<b>Korporativ daromad solig'i</b>	Pul ko'rinishidagi barcha foyda. QQS va aksizlar va soliq kodeksiga muvofiq soliqdan ozod qilingan daromadlar bundan mustasno (Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 251-moddasi.) Baza har bir turdagi foyda uchun alohida hisoblab chiqiladi.
3.	<b>Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)</b>	Tovarlarni yetkazib berish, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromad qonun hujjatlarida belgilangan chegirmalarni hisobga olgan holda
4.	<b>Aksizlar</b>	Aksiz to'lanadigan tovarlarning xarakteristikalarini asosida alohida alohida aniqlanadi (belgilangan stavkaga qarab har bir turdagi tovarlar uchun har xil).
5.	<b>Foydali qazilmalarni qazib olish solig'i</b>	Qazib olingan foydali qazilmalarning miqdori yoki qiymati (turiga qarab).
6.	<b>Suv solig'i</b>	Har bir suv havzasi va foydalanish usuli uchun alohida: <ul style="list-style-type: none"> <li>• 1000 kub metr. suv – suv olish uchun;</li> <li>• 1 kv.m suv maydoni – suvdan foydalanish uchun, yog'och raftingdan tashqari;</li> <li>• 1000 kub metr yog'och – yog'och rafting uchun;</li> <li>• 1000 kVt/soat energiya - gidroenergetika uchun.</li> </ul>
<b>Mintaqaviy soliqlar</b>		
1.	<b>Korxonalar mulk solig'i</b>	Ayrim obyektlar uchun soliq solinadigan mol-mulkning o'rtacha yillik qiymati yoki kadastr qiymati hisoblanadi
2.	<b>Qimor biznesiga soliq</b>	Obyektlar soni
3.	<b>Transport solig'i</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• dvigatel quvvati (ot kuchida) – dvigatelli transport vositalari uchun;</li> <li>• reaktiv dvigatelning statik yuki – havo transporti uchun;</li> <li>• tonnada quvvati – o'ziyurar bo'lmagan suv transporti uchun;</li> <li>• mablag'lar miqdori – dvigatellari bo'lmagan avtomobillar uchun.</li> </ul>
<b>Mahalliy soliqlar</b>		
1.	<b>Yer solig'i</b>	Yerning kadastr qiymati
2.	<b>Shaxsiy mulk solig'i</b>	Obyektning kadastr yoki inventar qiymati.

Manba: <https://assistentus.ru/nalogi-i-uchet/chto-takoe-nalogovaya-baza/>

Soliq solinadigan baza har bir daromad turi uchun alohida belgilanadi, ular uchun har xil stavkalar belgilanishi mumkin. Jismoniy shaxslardan oli-

nadigan daromad solig'i bo'yicha soliq solinadigan bazani aniqlash quyidagicha olib boriladi:

**Soliq bazasi** = (naqd puldagi daromad + natura shaklida daromad + moddiy manfaatlar ko'rinishidagi daromadlar) – (soliqdan ozod qilingan daromad) – (imtiyoz va chegirmalar)

2017-yil 1-yanvardan boshlab Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 2017-moddasi yangi band bilan to'ldirildi. Endilikda xodimning malakasini mustaqil baholash qiymatidan shaxsiy daromad solig'i undirilmaydi. O'zgartirishlar 2016-yil 3-iyuldagi 251-FZ-sonli Federal qonunida nazarda tutilgan.

Rossiya Federatsiyasining Soliq kodeksi shaxsiy daromad solig'i bo'yicha soliq solinadigan bazani aniqlashda hisobga olinadigan to'rt turdagi soliq imtiyozlarini nazarda tutadi:

- standart soliq imtiyozlari (RF SKning 218-moddasi);
- ijtimoiy soliq imtiyozlari (RF SKning 219-moddasi);

- mulk solig'i bo'yicha chegirmalar (RF SKning 220-moddasi);
- professional soliq imtiyozlari (RF SKning 221-moddasi).

Ushbu chegirmalarning har biri uchun soliq to'lovchilarning turli toifalari mos keladi. Har bir chegirma toifasi o'z chegarasiga, shuningdek uni olish tartibi va shartlariga ega.

Shaxsiy daromad solig'idan ozod qilingan daromadlar tarkibiga quyidagilar kiradi [17]:

- ✓ davlat nafaqalari, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqalar (shu jumladan, kasal bolani parvarish qilish bo'yicha nafaqalar), ishsizlik, homiladorlik va tug'ish nafaqalari, boshqa to'lovlar va kompensatsiyalar bundan mustasno;

- ✓ davlat va mehnat pensiyalari, ijtimoiy qo'shimchalar;
- ✓ Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi, Rossiya Federatsiyasining ta'sis subyektlari, mahalliy hokimiyat organlarining qarorlari (ma'lum chegaralar doirasida) bilan belgilangan kompensatsiya to'lovlari;
- ✓ fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo'yicha ko'ngillilarga to'lanadigan to'lovlar, ularning predmeti ishlarni tekin bajarish, xizmatlar ko'rsatish, ularning bunday shartnomalarni bajarish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash uchun - uy-joy, transport, oziq-ovqat va boshqalar uchun;
- ✓ donor yordami uchun mukofotlar (donor bergan qon, sut va boshqalar uchun);
- ✓ aliment, stipendiyalar, bir martalik to'lovlar (shu jumladan moddiy yordam shaklida);
- ✓ Rossiya Federatsiyasi hukumati ro'yxatlarida ko'rsatilgan xalqaro, xorijiy yoki rus tashkilotlari tomonidan Rossiya Federatsiyasida fan, ta'lim, madaniyat, san'atni qo'llab-quvvatlash uchun grantlar (beg'araz yordam);
- ✓ fan va texnika, ta'lim, madaniyat, adabiyot va san'at, ommaviy axborot vositalaridagi yuksak yutuqlari uchun xalqaro, xorijiy yoki Rossiya mukofotlari;
- ✓ tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda vaziyatlar munosabati bilan ish beruvchilar vafot etgan yoki nafaqaga chiqqan sobiq xodimning yoki nafaqadagi xodimning yoki oila a'zolarining (a'zolarining) vafoti munosabati bilan sobiq xodimning oila a'zolariga beriladigan to'lovlar;
- ✓ kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyalangan fuqarolarga davlat dasturlari doirasida byudjetlar va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan manzilli ijtimoiy yordam ko'rsatish shaklida;
- ✓ Rossiya Federatsiyasida terrorchilik hujuumlari qurbonlari, shuningdek Rossiya Federatsiyasi hududida terrorchilik harakatlari natijasida halok bo'lganlarning oila a'zolariga to'lovlar (to'lov manbasidan qat'i nazar);
- ✓ ish beruvchilar xodimlarga (ota-onalar, farzand asrab oluvchilar, vasiylar) va birinchi yil davomida bolaning tug'ilishi (asrab olinishi yoki asrab olinishi) paytida 50 ming rubldan ko'p bo'lmagan miqdorda to'lanadi (har bir bola uchun).
- ✓ terrorchilik xurujlarini aniqlash, bostirish va fosh etishda yordam berganlik uchun mukofotlar (federal va mintaqaviy byudjetlar hisobidan to'lanadi);
- ✓ belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan Rossiya va xorijiy xayriya tashkilotlari tomonidan naqd va naqd shakldagi xayriya yordami ko'rinishidagi to'lovlar miqdori (2012-yil yanvar oyidan boshlab);
- ✓ xodimlar, shu jumladan nogironligi yoki qariligi sababli nafaqaga chiqqanlar, ularning oila a'zolari, ushbu tashkilotda ishlamaydigan nogironlar, shuningdek 16 yoshgacha bolalar uchun sana-

- toriy-kurort yo'llanmalari narxini to'liq yoki qisman qoplash miqdori;
- ✓ Federal byudjetdan moliyalashtiriladigan davlat muassasalari yoki ularni chet elga ishlashga yuborgan tashkilotlardan soliq to'lovchilar tomonidan olingan xorijiy valyutadagi ish haqi miqdori (belgilangan normalar doirasida);
- ✓ dehqon (fermer) xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, sotish va qayta ishlashdan olingan daromadlari ro'yxatga olingan kundan boshlab birinchi besh yil davomida;
- ✓ jismoniy shaxslar tomonidan yetishtirilgan yovvoyi mevalar, rezavorlar, yong'oqlar, qo'zi-qorinlar va boshqa o'rmon resurslarini, shuningdek o'z ehtiyojlari uchun o'rmon oid bo'lmagan o'rmon resurslarini sotishdan olingan daromadlar;
- ✓ shimoliy kichik xalqlarning an'anaviy hunarmandchiligidan qabila, oilaviy jamoalar a'zolarining daromadlari (xodimlarning ish haqi bundan mustasno);
- ✓ havaskor va sport ovida olingan mo'yna, yovvoyi hayvonlar go'shti va boshqa mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlar;
- ✓ jismoniy shaxslarning turar-joy binolari, kvartiralar, xonalar, dachalar, bog' uylari yoki yer uchastkalarini va ko'rsatilgan mol-mulkdagi ulushlarini, shuningdek soliq to'lovchiga tegishli bo'lgan boshqa mol-mulkni sotishdan kamida 3 yil davomida olgan daromadlari;
- ✓ jismoniy shaxslarning merosidan olinadigan daromadlar (fan, adabiyot, san'at asarlari, shuningdek, kashfiyotlar, ixtirolar va sanoat namunalari mualliflarining merosxo'rlariga to'lanadigan haqlar bundan mustasno);
- ✓ jismoniy shaxslardan xayriya qilish yo'li bilan olingan naqd va natural shakldagi daromadlar, ko'chmas mulkni, transport vositalarini, ulushlarni hadya qilish hollari bundan mustasno;
- ✓ aksiyadorlik jamiyatlari yoki boshqa tashkilotlardan olingan daromadlar;
- ✓ yetim bolalar, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar va oila a'zolari bo'lmagan bolalar tomonidan notijorat tashkilotlaridan olingan daromadlar, ularning har bir a'zosiga to'g'ri keladigan daromadlari Rossiya Federatsiyasining ta'sis subyektlarining qonunlarida belgilangan yashash minimumidan oshmaydi;
- ✓ hokimiyat qarori bilan ko'rik-tanlov va tanlovlarda sovg'alar, mukofotlar, ish beruvchilar tomonidan moddiy yordam va dori-darmonlar uchun haq to'lash, reklama tanlovlaridagi yutuqlar, nogironlarning jamoat tashkilotlari tomonidan nogironlarga ko'rsatilgan moddiy yordam va boshqalarning qiymati - 4000 rubl. miqdorida.

Rossiya Federatsiyasida QQS egri soliq va bahoni ajralmas qismi sifatida tovar bozorida talab va taklifni boshqarish uchun qo'llaniladi. QQSni olish tartibini aniqlovchi asosiy hujjat Rossiya Federatsiyasini 1991-yil 6-dekabr "Qo'shilgan qiy-

mat solig'i to'g'risida"gi 1992 yilgi 1- sonli qonuni (keyingi o'zgarishlar bilan) hisoblanadi[18].

Soliq to'lovchi tomonidan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilganlik uchun soliq solinadigan baza aksizlarni hisobga olgan holda ushbu RF SKning 153-moddasiga muvofiq belgilanadigan narxlardan kelib chiqqan holda hisoblangan ushbu tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati sifatida belgilanadi. (aksiz to'lanadigan tovarlar uchun) va ularga soliq kiritilmagan holda aniqlanadi.

O'z iste'moli uchun qurilish-montaj ishlarini bajarishda soliq solinadigan baza soliq to'lovchining ularni bajarish uchun qilgan barcha haqiqiy xarajatlardan kelib chiqqan holda hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasining bojxona hududida bajarilgan ishlarining qiymati sifatida aniqlanadi va Rossiya Federatsiyasining bojxona hududiga tovarlar olib kirilayotganda soliq solinadigan baza tovarlarning bojxona qiymati, to'lanadigan bojxona to'lovi, to'lanadigan aksizlarning yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Qurilish, qurilish-montaj va ta'mirlash tashkilotlarida soliq solinadigan oborot, buyurtmachi tomonidan qabul qilingan, bajarilgan ishni qiymati hisoblanadi. QQSni ushbu ishlar bo'yicha hisoblash, realizatsiya hisob raqamlarida ko'rsatiladigan summadan kelib chiqiladi.

Soliq to'lovchi Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksida belgilangan quydagi soliq imtiyozlari bo'yicha soliqning umumiy miqdorini kamaytirishga haqli[19]:

1) soliq to'lovchiga olinganda taqdim etilgan soliq summaları chegirmalarga tortiladi:

- soliq solish obyektini deb e'tirof etilgan operatsiyalarni amalga oshirish uchun olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar), shuningdek mulkiy huquqlar;

- qayta sotish uchun sotib olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar);

2) sotuvchilar tomonidan soliq to'lovchiga – Rossiya soliq organlarida ro'yxatdan o'tmagan xorijiy shaxsga taqdim etilgan soliq summaları;

3) xaridorlarga soliq agentlari tomonidan to'langan soliq summaları;

4) kelgusida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish hisobiga olingan to'lov, qisman to'lov summalaridan soliq to'lovchi tomonidan hisoblangan soliq summaları.

Qonunchilikda chegirib tashlash uchun qabul qilingan QQSni undirish hollari, ularning ro'yxati va undirish tartibi Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 171-moddasi bilan belgilanadi.

Rossiya Federatsiyasida Federal, hududiy va mahalliy byudjetlarning asosiy daromad manbalaridan biri korxonalar va tashkilotlarning foydasiga solinadigan soliq hisoblanadi. Soliq solinadigan obyekt mahsulotni sotish (ish, xizmat)dan olingan foyda (zarar) summasi, asosiy fondlar, boshqa korxonalar mulkidan olingan daromad, sotishdan tashqari operatsiyalardan, unga ketgan xarajati chiqarib tash-

lash yo'li bilan aniqlangan daromadlar korxonani yalpi foydasi hisoblanadi.

Mahsulotni (ish, xizmat) sotishdan olingan foyda (zarar) mahsulotni (ish, xizmat) sotishdan olingan QQS va aksizsiz tushum bilan mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga qo'shiladigan ishlab chiqarish va sotish xarajati o'rtasidagi farqdan iborat. Foyda solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza rejalashtirilgan daromadlar va xarajatlarni hisobga olgan holda quydagi formula bilan aniqlanadi:

$$\text{Soliq solinadigan baza} = (\text{sotishdan tushgan daromad}) + (\text{operatsion bo'lmagan daromad}) - (\text{daromad miqdorini kamaytiradigan xarajatlar}) - (\text{operatsion bo'lmagan xarajatlar})$$

Daromadning tarkibi Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 248-moddasi bilan belgilanadi va bu tarkib ikkita daromad guruhini o'z ichiga oladi:

Birinchi guruh - sotishdan olingan daromadlar.

Ikkinchi guruh - faoliyatdan tashqari daromadlar.

Rossiyada foyda solig'i bazasini aniqlashda quydagi qator jihatlarga e'tibor qaratiladi, jumladan:

- soliq solish maqsadida haqiqiy tannarxidan yuqori bo'lmagan bahoda mahsulotni (ish, xizmat) sotuvchi korxonalar bo'yicha shunga o'xshash mahsulot (ish, xizmatni)larni sotish vaqtida yuzaga kelgan bozor bahosi qabul qilinadi. Lekin bu baho haqiqiy tannarxidan past bo'lmasligi kerak. Agar korxonalar mahsulotni tannarxidan yuqori bahoda uning sifati, yoki iste'mol sifati (ma'naviy eskirish) pasayishi natijasida sotib olmaganda yoki yuzaga kelgan bozor bahosi bu mahsulotni yoki shunga o'xshagan mahsulotni haqiqiy tannarxidan past bo'lsa soliq solish maqsadida uning haqiqiy sotilgan bahosi olinadi.

- Korxonalar mahsulotni haqiqiy tannarxidan yuqori bo'lmagan bahoda sotishdan oldin 30 kun davomida, shunga o'xshash mahsulotni haqiqiy tannarxidan yuqori bahoda sotilganida, hamma kelishuvlar bo'yicha soliq solish maqsadida mahsulotni sotishdagi eng yuqori baho qo'llaniladi. Korxonalar mahsulotni (ish, xizmat) almashtirganda yoki to'lov olmasdan berganda tushum soliq olish maqsadida shu kelishuv amalga oshgan bir oyga hisoblangan mahsulotni yoki shunga o'xshash mahsulotni (ish, xizmat) o'rtacha sotish bahosi bilan aniqlanadi. Agar shunday va shunga o'xshash mahsulotni (ish, xizmat) bir oy ichida sotilmaganda, oxirgi sotish narxi olinadi. Lekin haqiqiy tannarxidan past bo'lishi mumkin emas. Korxonalar ilgari ishlab chiqarilmagan yangi o'zlashtirilgan mahsulotni turini boshqa mahsulotga almashtirganida yoki olingan mahsulotni almashtirganida (soliq solish maqsadida), o'zining haqiqiy tannarxidan past bo'lmagan haqiqiy bozor bahosi qo'llaniladi.

Sotishdan tashqari operatsiyalar daromadi (xarajati) tarkibiga boshqa korxonalar faoliyatida



ulushli qatnashish natijasida olgan daromadi, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromad, aksiyalar, obligatsiya va boshqa qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha olingan daromad (dividendlar, fondlar) va tovarlarni (ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lmagan operatsiyalar bo'yicha daromad(xarajatlar) kiradi. Bu operatsiyalar federal qonun asosida belgilangan bo'lib, soliq solinadigan foydani aniqlashda qonunda mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga qo'shiladigan xarajatlar ro'yxati, moliyaviy natijalarni tashkil topish tartibi berilgan bo'lishi kerak.

Soliq solinadigan bazaga korxonalar, tashkilot, muassasaga davlat organlari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari, birlashmalar, assotsatsiyalar, konsemlar, tarmoqlararo, hududiy birlashmalar tomonidan haq to'lamasdan beriladigan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, boshqa mulklar va o'zining ishlab chiqarish va noishlab chiqarish bazasini rivojlantirish uchun kapital qo'yilma tariqasida ajratilgan pul mablag'lari kirmaydi. Soliq solish maqsadida yalpi foyda boshqa korxonalarni faoliyatida ulushli qatnashganligi uchun olgan daromad summasiga kamaytiriladi. Rossiya Federatsiyasidan tashqarida olingan daromad, kazino, boshqa o'yin bizneslari, shou salonlari, video-audiokasseta va ulardagi yozuvlar bo'yicha olingan daromadlar (tushum bilan xarajatlar farqi) summasiga yalpi daromad kamaytirilmaydi.

Banklami soliq solinadigan bazasini aniqlashda yalpi foyda qimmatbaho qog'ozlari qadrsizlanishi ssudalar bo'yicha yo'qotish bo'lishi mumkin bo'lgan xarajatlarni qoplash uchun Markaziy bank, Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi bilan kelishil-

gan rezerv fondini tashkil qilish maqsadida qilingan ajratmalarga kamaytiriladi.

Byudjet tashkilotlari va tijorat bilan shug'ullanmaydan boshqa tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatidan daromad olgan holda, shu faoliyatidan xarajatlardan ortiq olingan daromadidan bu soliqni to'laydilar.

Diniy birlashmalar, nogironlarni ijtimoiy tashkiloti va ularni mulki hisoblangan korxonalar va tashkilotlar, hamda umumiy ishlaydiganlarning eng kamida 50 %i nogiron bo'lgan korxonalar va tashkilotlar foydasiga soliq solinmaydi. So'nggi qayd etilgan korxonalarda, asosiy shart eng kamida 50 % foyda nogironlarni ijtimoiy talabini qoplash uchun sarflinishi zarur.

Yevropa mamlakatlar ichida Germaniya Federativ Respublikasi(GFR) sanoati rivojlangan davlatlardan biri, hamda jahonda YaIM bo'yicha birinchi o'rinda turadi, qolaversa, soliqqa tortish tizimi va soliqlarni boshqarish asoslari anchagina rivojlangan va murakkabdir.

Germaniya Federativ Respublikasidagi mavjud soliq turlarining har biri(daromad, korporatsiya, qqs, hunarmandchilik) bo'yicha maxsus qonunlar bo'lib, ular soliq va uning bazasini aniqlash bilan bog'liq barcha muayyan masalalarni tartibga soladi. Shuningdek, xalqaro hujjatlar ham shular jumlasidandir, jumladan, bu hujjatlarga ikki yoqlama soliqqa tortish to'g'risidagi shartnomalar, tashqi iqtisodiy aloqalar to'g'risidagi huquqiy nizom va boshqa soliqqa oid, ayniqsa Yevropa iqtisodiy hamdo'stlik tizimini yaratish haqidagi masalalarni o'z ichiga oladigan xalqaro xuquqiy hujjatlar kiradi.

3-jadval

Germaniya Federativ Respublikasida mavjud soliqlarning soliq bazasini aniqlash tartibi

№	Soliq turi	Soliq bazasi
1.	Daromaddan soliq	Soliq davridagi umumiy daromaddan shu daromadlarni olish bilan bog'liq qilingan xarajatlar va chegirmalar farqi
2.	QQS	Import hajmi va sotilgan, ko'rsatilgan xizmatlar, ishlar hajmi
3.	Savdo solig'i	Ijoratning umumiy daromadi bilan umumiy xarajatlar va chegirmalar farqi
4.	Avtotransport solig'i	Avtomobilning umumiy og'irligi, ifloslantiruvchi moddalar emissiyasi va siljish

**Manba:** Shamsutdinov F.Sh., Shamsutdinova Sh.F. Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi. (Darslik). -T.: Fan va texnologiya, 2011,508 bet. ISBN 978-9943-10-553-9 manbasi asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Jadvalda aks etgan ma'lumotlardan biz soliq bazasi sifatidav qarashimiz lozim bo'lgan aniq bir tushunchani olamiz. GFRning soliq tizimida daromad solig'i yetakchi o'rinni egallaydi hamda ancha mukammalligi va differentsiallanganligi uni boshqa mamlakatlardagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq bazasini aniqlanishi usullaridan farq qilishini ko'rsatadi. Soliq bazasini aniqlash jarayonida juda ko'p omillar hisobga olinadi:

oilaviy ahvol, ishlaydiganlar soni, mehnat faoliyatining qanday turdaligi, qaysi mutaxassislik turi bo'yicha daromad olayotgani va h.k. Shuningdek, chegirma va imtiyozlar juda keng miqyosda ishlatiladi.

GFR soliq tizimida soliqqa tortiladigan bazani aniqlashda sof daromad kalendar yilida olingan barcha yalpi daromadlarga asoslanadi va yuqoridagi toifalarning har biri uchun shu davrdagi daromad bilan bog'liq xarajatlarga kamaytiriladi. Shu jumla-

dan, soliq to'lovchining katta miqdordagi xarajatlarini daromaddan chegirib tashlashga imkon beradi. Bu, ayniqsa, daromad bilan bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlarga tegishli. Bazani aniqlashda "ishlab chiqarish xarajatlari», "xizmat va mehnat faoliyati bilan bog'liq xarajatlar" va "oilani ta'minlash bilan bog'liq xarajatlar" shaklida ko'plab chegirmalar qo'llaniladi. Masalan, bolalikdan to'lanadigan to'lovlar, ishga borish va ishdan qaytishda sarflanadigan transport xarajatlari, hayotni sug'urta qilish bilan bog'liq har xil sug'urta turlari va malakasini oshirish xarajatlari soliqqa tortilishdan ozod etiladi. Bunda oiladagi bolalar soni hisobga olinadi, xususiy uy qurish va boshqalarga imtiyoz beriladi.

GFRda daromad solig'i bazasini aniqlash jarayonida har bir daromad turiga muvofiq ravishda soliq bazasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Xususan, olgan ijara daromadidan ipoteka xarajatlarini, texnik xizmat ko'rsatish, yaxshilash va ta'mirlash kabi xarajatlarni chegirish mumkin. Biroq, haqiqiy xarajatlarni chegirib tashlashga muqobil ravishda yiliga 1000 evro miqdorida qat'iy chegirma mavjud. Belgilangan chegirmani qo'llaydigan soliq to'lovchi bazadan real xarajatlarni chegirib tashlashga haqli emas.

GFRda QQSning soliq bazasi – QQS undiriladigan soliqqa tortiladigan operatsiya summasi hisoblanadi (odatda tegishli tovarlar yoki xizmatlarning narxi). Soliq solinadigan bazani aniqlash uchun bir qator qoidalar mavjud. Bu jarayon quyidagi uch xil turdagi operatsiyalarni ajratib ko'rsatadi:

- 1) Tovar va xizmatlarni yetkazib berish operatsiyalari;
- 2) Buyumlar importi;
- 3) Mamlakat ichidagi buyumlarni sotib olish operatsiyalari.

Tovar va xizmatlarni yetkazib berishda soliq bazasiga quyidagilar kiritilgan:

- QQSning o'zidan tashqari soliqlar, bojlar, yig'imlar;
- yetkazib beruvchi mijozga o'tadigan komissiya, qadoqlash, transport va sug'urta xarajatlari kabi qo'shimcha xarajatlari;

- yetkazib berish narxiga bevosita bog'liq bo'lgan subsidiyalar.

Tovar va xizmatlarni yetkazib berishda soliq bazasiga esa quyidagilar kiritilmagan:

- avans to'lovlari uchun naqd chegirmalar orqali narxlarni pasaytirish
- xaridorga berilgan va sotish paytida olingan narx bo'yicha chegirmalar va imtiyozlar;
- soliq to'lovchi tomonidan xizmatlarni xaridor yoki oluvchidan o'z nomidan va hisobvarag'iga to'langan summalarni qoplash sifatida olgan va ularning hisobvaraqlarida vaqtinchalik obyektlar sifatida hisobga olinadigan summalar.

Tovarlarni import qilishda soliq bazasi soliqlar, bojlar, yig'imlar, boshqa yig'imlar va hali kiritilmagan qo'shimcha xarajatlarni o'z ichiga olgan tovarlarning bojxona qiymati hisoblanadi.

Shuningdek tovarlarni import qilishda soliq bazasiga yana quyidagilar kiritilgan:

- import qiluvchi davlatdan tashqarida bo'lgan soliqlar, bojlar, yig'imlar va boshqa to'lovlar, shuningdek import natijasida to'lanadigan qarzarlar, amaldagi QQS bundan mustasno;
- komissiya, qadoqlash, transport va sug'urta xarajatlari kabi yordamchi xarajatlari tovarlarning birinchi ichki manziliga qadar amalga oshiriladi;
- Yevropa Ittifoqidagi boshqa manzilga tashish natijasida yuzaga kelgan tasodifiy xarajatlari, agar bu haq to'lanadigan voqea sodir bo'lganligi ma'lum bo'lsa.

Tovarlarni import qilishda soliq bazasiga ushbular kiritilmagan:

- oldindan tolovlar yoki cimtiyoz uchun chegirmalar;
- xaridorga berilgan va import amalga oshirilgan paytda olingan narx bo'yicha chegirmalar va imtiyozlar.

Mamlakat ichidagi buyumlarni sotib olishda soliq bazasi, asosan, sotib olingan Yevropa Ittifoqi mamlakatida tovarlar yoki xizmatlarni yetkazib berish bilan bir xil omillardan foydalaniladi.

4-jadval

AQSh soliq tizimida mavjud asosiy soliqlaning bazasi

№	Soliq turi	Soliq bazasi
1.	Shaxsiy daromad solig'i	Yalpi daromaddan soliq imtiyozlari va ba'zichegirmalarni olib tashlagan holda aniqlanadigan sof daromad
2.	Korpoatsiyalar foyda solig'i	Yalpi daromaddan odatdagi chegirmalar va maxsus chegirmalar farqi
3.	Ko'chmas mulk solig'i	Ma'lum bir sanadagi har bir mulkning bozor qiymati
4.	Savdo solig'i	Iste'molchi tomonidan sotib olingan tovarlarning chakana narxidir

*Manba: Shamsutdinov F.Sh., Shamsutdinova Sh.F. Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi. (Darslik). —T.: «Fan va texnologiya», 2011, 508 bet. ISBN 978-9943-10-553-9 manbasi asosida muallif tomonidan tayyorlandi.*

Amerika Qo'shma Shtatlari(AQSh) katta tarixga ega boy davlat bo'lganligi uchun uning soliq tizimi ko'pgina iqtisodchilar tomonidan chuqur o'rganilgan va amaliyotda keng miqyosda sinalgan. Shu boisdan ham biz o'z ilmiy tadqiqotlarimizda bu davlat soliq tizimida soliq bazasining aniqlash tartibi va tamoyillarini, qolaversa, uning xususiyatlarini ko'rib chiqishni ma'qul topdik.

Tadqiqotlardan ko'rishimiz mumkinki, AQSh soliq tizimida shaxsiy daromad solig'i, ko'chmas mulk solig'i, iste'moldan soliq, qolaversa, ijtimoiy sug'urta badallari va korporatsiyalar foydasiga soliqlari amalda ekan.

AQSh soliq tizimida shaxsiy daromad solig'i bazasini aniqlashda yalpi daromad sifatida ish haqi va xizmatlarni bajarish uchun to'lovlar, inventar yoki boshqa mol-mulkni sotishdan tushgan daromad, foizlar, dividendlar, ijara to'lovlari, royaltlar, pensiyalar, alimentlar va boshqa ko'plab daromad turlari kiradi. Yalpi daromad tuzatishlar va ajratmalar bilan kamayadi. Eng keng tarqalgan tuzatishlar orasida to'langan alimentlar va IRA va boshqa pensiya rejasidagi badallarni kamaytirish kiradi. Tuzatilgan yalpi daromad turli chegirmalar, kreditlar, bosqichma-bosqich bekor qilish va jarimalar bilan bog'liq hisob-kitoblarda qo'llaniladi. Quyidagilar yalpi daromadni kamaytiruvchi chegirmalar hisoblanadi:

*Biznes chegirmalar:* Barcha soliq to'lovchilarning soliqqa tortiladigan daromadlari ularning biznesi bilan bog'liq xarajatlar uchun chegirmalar bilan kamayadi. Bularga ish haqi, ijara haqi va to'langan yoki hisoblangan boshqa biznes xarajatlari, shuningdek, amortizatsiya ajratmalari kiradi. Xarajatlarni chegirib tashlash zararga olib kelishi mumkin. Odatda, bunday yo'qotish ba'zi cheklovlarni hisobga olgan holda boshqa soliqqa tortiladigan daromadlarni kamaytirishi mumkin.

*Shaxsiy ajratmalar:* 2018-yildan 2025-yilgacha shaxsiy imtiyozlar uchun avvalgi chegirma bekor qilindi.

*Standart chegirma:* Jismoniy shaxslar ma'lum shaxsiy xarajatlar uchun soliqqa tortiladigan daromaddan chegirma oladilar. Jismoniy shaxs standart chegirma talab qilishi mumkin. 2021-yil uchun asosiy standart chegirma yolg'iz yoki turmush qurgan shaxslar uchun alohida ariza berganlar uchun 12 550 AQSh dollari, qo'shma qaytish yoki tirik qolgan turmush o'rtog'i uchun 25 100 AQSh dollari va oila boshlig'i uchun 18 800 AQSh dollarini tashkil yetdi.

*Batafsil ajratmalar:* Haqiqiy ajratilgan chegirmalarni talab qilishni tanlaganlar ko'plab shartlar va cheklovlarni hisobga olgan holda quyidagilarni olib qo'yishlari mumkin:

Tuzatilgan yalpi daromadning 10% dan ortiq tibbiy xarajatlar 2018-yildan 2025-yilgacha 10 000 yoki 5 000 AQSh dollari bilan cheklangan ayrim soliqlar "Uy-joy ipoteka foizlari", "Xayriya ishlariga

hissalar", "Talofat tufayli notijorat mulkdagi yo'qotishlar".

Korporatsiyalar foyda solig'inining bazasini aniqlashda yalpi daromad quyidagilarni o'z tarkibi-ga oladi[20]:

- tovarlarni sotishdan olinadigan yalpi tushum;
- xizmat ko'rsatishdan olingan yalpi tushum;
- dividendlar (hamma summasi yalpi daromadga qushiladi);
- renta to'lovi va royalti;
- kapitalni o'sishidan olinadigan daromad;
- sotishdan olinadigan boshqa daromadlar (zararlar).

Yalpi daromaddan chiqariladigan odatdagi chegirmalar quyidagilardan iborat:

- ish haqi;
- ta'mirlash xarajati;
- umidsiz qarzlilar (qarzni qaytarmaslik holatlarida);
- renta to'lovlari;
- mahalliy soliqlar va shtat soliqlari;
- kreditlar bo'yicha beriladigan fondlar;
- xayr-ehsonga ajratmalar;
- amortizatsiya (qayta ishlash sanoatida);
- resurslarning qamayishi chegirmasi (qazib oluvchi sanoat);
- reklama xarajati;
- reklamaga ajratma;
- Pensiya fondiga ajratma va foydani taqsimlashda qatnashuvchi ishlovchilarga ajratma;
- ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlarini o'tkazish xarajatlari;
- zararlar.

Odatdagi chegirmadan tashqari yalpi daromaddan operatsion zararlar, olingan dividendlardan 85% (ayrim vaqtlarda 100 %) va boshqa maxsus chegirmalar chiqarilib tashlanadi.

AQShda ko'chmas mulk solig'i bazasi soliq organi tomonidan soliq solinadigan mol-mulkga qo'yiladigan pul qiymatlaridan boshlanadi. Barcha shtatlar bozor qiymatini (oddiy qiymat yoki haqiqiy qiymat deb ham ataladi) baholash uchun standart sifatida tan oladi, ammo hamma davlatlar ham bu standartni qat'iy qo'llamaydi. Ko'pgina shtatlar mol-mulkning to'liq qiymatini soliqqa tortishga ruxsat bermaydi, balki soliq stavkasi qo'llanilishidan oldin qiymatlarni kamaytirish uchun baholash koeffitsientlarini qo'llaydi. Ba'zi shtatlar mulkni foydalanish bo'yicha turli xil soliq stavkalari yoki mulkning turli sinflari uchun baholash koeffitsientlari bilan tasniflaydi. Baholovchi uyning baholangan qiymatini bozor qiymatiga, baholangan qiymatga yoki ikkalasining bir xil foiziga qarab topadi. Munitsipalitetlar va okruglar o'z yurisdiksiyalaridagi uylarning baholangan qiymatini aniqlash uchun baholovchini ishga olishadi. Shuni ta'kidlash kerakki, bozor qiymati va baholangan qiymat muhim bo'lsa-da, baholovchi adolatli va to'g'ri baholashni ta'minlash uchun

baholangan qiymatni topishda qiyosiy bozor tahlilidan foydalanadi. Qiyosiy bozor tahlili ko'chmas mulk agentlari yaqinda bir xil hududda sotilgan shunga o'xshash narsalarni baholash orqali ma'lum bir mulk qiymatini baholash uchun foydalanadigan vositadir. Uning adolatli bozor qiymatini ishonchli baholash juda qiyin bo'lishi mumkin, chunki ma'lum bir mulkning qiymatini aniqlashga yordam beradigan ko'plab omillar mavjud.

**Xulosa va takliflar.** Ayni paytdagi tez sur'atli dunyoda mamlakatimiz o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda avvalambor, soliq siyosati muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday davlatchilik ko'rinishida soliqlar nafaqat tadbirkor, korxonalar va tashkilotlarni balki alohida jismoniy shaxslarni iqtisodiy harakatga keltiruvchi "muruvvat" sifatida xizmat qiladi. Soliq va yig'implarning asosiy, ya'ni fiskal funksiyasini bajarish bilan bir qatorda soliq to'lovchilar bilan soliq-larning turlari va ularning amal qilish mexanizmini soddalashtirish muhimdir, shuningdek soliq solish bazasini aniqlash tarixlarini yanada takomillashti-

rish va adolatlilik tamoyillariga taynib ish ko'rish, qolaversa, mamlakatimizdagi soliq tizimini yanada rivojlantirish va soliq yukini kamytirib, mos ravishda soliq bazasini kengaytirish masalalarida rivojlangan xorijiy davlatlar soliq tizimini tahlil qilish orqali muqobil soliq uslubiyatini ishlab chiqish va kelgusida soliq yig'iluvchanligini oshirish yuqorida keltirib o'tilgan davlatlar soliq tizimida soliq bazasini aniqlash tartiblari va xususiyatlarini tahlil qilish orqali erishish mumkin.

Izlanishlarimiz davomida Rossiya Federatsiyasi, Germaiya Federativ Respublikasi, Amerika Qo'shma Shtatalari va ba'zi Yevropa mamlaklaridagi eng asosiy soliq turlarining soliq solish bazasini, uni aniqlanish tartiblari va xususiyatlarini to'laqonli ko'rib chiqishga harakat qildik. Bu davlatlarda soliq bazasini aniqlash tartiblari o'ziga xos xususiyatlar va tamoyillarga ega bo'lib, yuqoridagi xususiyatlarining bazilari bizning soliq tizimimizda ham mavjudligini, ba'zilari esa tubdan farq qilishining guvohi bo'ldik.

#### **Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Милляков Н.В., *Налоги и налогообложение: Учебник.* - 5-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2006. 509 с.
2. Майбуров И.А. *Налоги и налогообложение*, ред. 2017, 4-е изд. -558с; М.Р.Пинская *Основы теории налогов и налогообложения/ под научн.ред. д.е.н.,проф. Б.С.Барда: Монография.* – М.:Издательство Палеотип, 2004.-216с
3. Пирого С.С. *Элементы правового механизма НДС: проблемы определения [Текст] / С. С. Пирого, И. С. Пирого // Налоги. - 2013. - № 3. - С. 28-32. - Библиогр. : с.32 (6 назв.) УДК ^а347.73 ББК 67.402 Рубрики: Право. Финансовое право. –Россия-Укра*
4. Шелемех Н.Н. *Фьючерсы, форварды, опционы – формирование доходов и расходов [Текст] / Н.Н. Шелемех // Бухучет в сельском хозяйстве. - 2016. - № 2. - С. 40-50. - Библиогр.: с. 50 (14 назв. ). – Продолж. Начало: № 1. – ISSN 2075-0250 УДК ^а336.22 ББК 65.261 Рубрики: Экономика Финансовая система.*
5. Грузин П.П. (2008) *Налогообложение материальной выгоды от экономии на процентах за пользование заемными (кредитными) средствами [Текст] / Бухгалтерский учет. № 10. - С. С. 26-32 УДК ^а336.0/5 ББК 65.261 Рубрики: Экономика. –Россия: Финансовая система.*
6. Брыкин К.И. (2017) *Институт контролируемых иностранных компаний по законодательству Соединенных Штатов Америки [Текст] / Международная экономика. № 7. - С. 38-42. - Библиогр.: с. 42 (3 назв. ). – ISSN 2074-6040 УДК ^а338(1-775) ББК 65.6 Рубрики: Экономика Экономика развитых стран—США.*
7. Козенкова Т, Зачупейко И (2012) // *Особенности налогообложения прибыли в консолидированных налоговых группах [Текст] / РИСК: ресурсы, информация, снабжение, конкуренция. № 2, Ч. 2. - С. 324-330 : табл. - Библиогр.: с. 330 (5 назв.) УДК ^а658.152 ББК 65.261 Рубрики: Экономика Финансовая система.*
8. Лыкова, Л. Н. *Л88 Налоговые системы зарубежных стран : учебник для бакалавриата и магистратуры / Л. Н. Лыкова, И. С. Букина. – М.: Издательство «Юрайт», 2015. – 429 с. – Серия : Бакалавр и магистр. Академический курс. ISBN 978-5-9916-3993*
9. *A Common Tax Base for Multinational Enterprises in the European Union* Wendt, Carsten. author. 2009 [https://i-share-rou.primo.exlibrisgroup.com/permalink/01CARLI\\_ROU/1bp999s/alma 9944784220405881](https://i-share-rou.primo.exlibrisgroup.com/permalink/01CARLI_ROU/1bp999s/alma 9944784220405881)
- 10;17;19;20. F.Sh.Shamsutdinov, Sh.F.Shamsutdinova. *Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi. (Darslik). —T.: «Fan va texnologiya», 2011,508 bet. ISBN 978-9943-10-553-9*
11. *Markaziy Osiyo davlatlari Soliq tizimi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2005.*
12. Яхёев Қ. *Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти Дарслик Ғафур Ғулом номвадаги Адабиёт ва санъат нашриёти Тошкент — 2000;*
13. *Soliq statistikasi va prognozi: O'quv qo'llanma/ A.Jo'rayev, S.Shirinov. O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi;T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015, -312.*
- 14;15. *Текст документа сверен по: "Информационный бюллетень Межпарламентской Ассамблеи государств - участников СНГ", № 33, 2004 год .*
16. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Налоговая база](https://ru.wikipedia.org/wiki/Налоговая_база)
18. *Налоговая система Российской Федерации: учебник / М.М. Шадурская, Е.А. Смородина, И.В. Торопова, М.И. Львова, А.Г. Лачихина; под общ. ред. М.М. Шадурской; Министерство науки и высшего образования Российской Федерации, Уральский федеральный университет. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2020. – 254 с.: ил. – (Учебник УрФУ). – Библиогр.: с. 250–252. – 400 экз. – ISBN 978-5-7996-3036-2. – Текст: непосредственный. ISBN 978-5-7996-3036-2.*